

BOZOR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI.

Saodat Yulsheva G'anisherovna

ganishereshboboyev@gmail.com

Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.

Annototsiya : Ushbu mavzu O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi mazmunini bayon qilib berish bilan boshlanib , uning asosiy belgilari , subyektlari va rivojlanish bosqichlari talqiniga alohida o'rin ajratiladi. Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy muammolari ,bunday iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari tahliliga ham o'rin beriladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun maxsus o'tish davri zarur bo'lib ,bu davrning mazmuni va asosiy belgilarini ko'rib chiqib maqsadga muvofiq hisoblanadi . Bu mavzuda o'tish davri nazariyasi ,xususan bozor munosabatlariga o'tish davri yo'llari bayon qilinadi.Shuningdek bozor munosabatlariga o'tish , iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish , strategiya vazifalarini amalga yo'llari tahlil qilinadi.Mavzu bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va ustuvor yo'nalishlari bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Bozor mexaniz ,bozor subyekti ,bozor obyekt,bozor infratuzilmasi ,tadbirkorlik sektori,bank , ssuda kapitali bozori ,qimmatli-qog'ozlari bozor.

Kundalik hayotimizda har qadamda uchrab turadigan atamalardan biri bu-**"iqtisodiyot"** tushuncha bo'lib , qisqa yoki og'iz so'z bilan tushuntirib berish amri mahol vazifa hisoblanadi. Gap shundaki , bu atama bilan bevosita bog'liq bo'lgan yoki aniqrog'undan kelib chiqqan "iqtisod " „iqtisod qilish" kabi iboralar ham borki ,ularning ma'nosi bir-biri bilan juda yaqin . „Iqtisod qilish" deyilganda ,biz odamlarning turli xil ehtiyojlardan qondiradiga noz-ne'matlar ,moddiy boylik va resurslardan tejab-tergab foydalanishini tushunmog'imiz kerak. Bugungi kunda „iqtisodiyot" atamasi ikkita ma'noda ishlatilmoqda ,desak xato bo'lmaydi.Uning birinchi ma'nosi siz bilan bizning barcha jamiyat a'zolarining kundalik hayotini turmush sharoitlarini ta'minlovchi xo'jalikdir .Odamlarning turli-tuman moddiy va ma'noviy ehtiyojlarini qondirish aynan ana shu xo'jalikka bog'lik bo'lib, uning rivojlanganlik darajasi pirovard natijada odamlarning hayot tarzi va sifatini belgilab beradi.Shuning uchun ham xo'jalikni , ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirish har qanday jamiyat (xalq) oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi . Xo'jalik ma'nosidagi iqtisodiyot ko'p tarmoqli bo'lib ,bu tarmoqlarni ikkita katta sohaga bo'lish (yoki

ajratish)mumkun : moddiy ishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy- madaniy soha „Iqtisodiyot” atamasining ikkinchi ma’nosi xo’jalikni, odamlarning xo’jalikni, odamlarning xo’jalik faoliyatini o’rganuvcha ilm (fan)dir.

Bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmi ko‘plab asrlar davomida tarkib topgan ,shakllanib , hozirgi davrda madaniyatlashgan shaklni kasb etdi va ko‘pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi.

Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi shu bilan izohlanadiki , uzoq davrli iqtisodiy evolutsiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik qoidalari saqlanib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari tarkibiga tadbirkorlar ham ,yollanma ishchilar ham,pirovard iste’molchilar ,ssuda kapitali egalari va qimmatli qog‘oxlar egalari ham kiradi.Odatda , bozor xo’jagining barcha asosiy subyektlari uchta guruhga bo‘linadi :uy xo’jaliklari ,korxonalar, tadbirkorlik sektori va davlat .

Tadbirkorlik sektori- bu daromad , foyda olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo’g’inidir .U ish yuritish uchun o’z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi . Tadbirkorlar tavor xo’jaligida tavar va xizmatlarni yetkazib beradi.

Davlat – foyda olishni maqsad qilib quymagan , asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan har xil budjet tashkilotlarni va muassasalari sifatida namoyon bo’ladi.

Uy xo’jaliklari – iqtisodiyotning iste’mol sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birlik .Uy xo’jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida yaratilgan tavar va xizmarlar iste’mol qilinadi.Bozor iqtisodiyotida uy xo’jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish ommillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Bozor iqtisodiyotining mustaqil subyekti sifatida banklar ajratsak bo’ladi.

Bank iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo’lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya – kredit muassasi .

Bozor iqtisodiyotining tarixan tarkib topgan ikki turini ajratish zarur . Birinchisi klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti deb atalib , uzoq vaqt davomida shakllanib g’arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asrning oxirilarigacha davom etib keldi. Uning asosiy belgilari : Xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy

faoliyat yuritish : capital va ishlab chiqarishning korxonada miqyosida umumlashganligi , tadbirkorlar , ishchilar , ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning shaxsiy erkinligi , tadbirkorlarning yuqori , foyda olishi uchun kurashlari , iqtisodiyotning talab va taklif , erkin bozor narxi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi, aholining ijtimoiy ximoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqalashuvining kuchayishi .

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti deb atalib . XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi.

Bozor tushunchasi , uning vazifalari va turlari .Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriyasi bo'lib , iqtisodiyot nazoriyasida ham xo'jalik yuritish amaliyotida ham , barcha mamlakatlar tajribasida ham qo'llaniladigan ilmiy- amaliy tushunchadir .Eng avvalo „bozor va bozor iqtisodiyoti“ tushunchalarining bir – biridan farqlanishini ta'kidlab o'tamiz. Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tavar va xizmatlarni , iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratdir .Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir- biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tavar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi.

Bozor iqtisodiyoti – tavar ishlab chiqarish , ayirboshlash va pul muomalasi qonuni- qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastlab va vositalardir .

Bozor – ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'insidir.

Bozor obyekt – bozorga ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalariva iqtisodiy resurslar , tavar ,pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

Bozor subyekti – bozorning , ayirboshlash munosabatlarining qatnashchilaridir .

Bozor infratuzilmasi – ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

Tadbirkarlik sektori – iqtisodiyotning daromad olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo'g'ini .

Bank – iqtisodiyot me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya – kredit muassasi .

Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi- sotdi munpsabati.

Qimmatli qog'ozlar bozori – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aksiya , obligatsiya , veksel, chek,deposit kabilar) ning oldi – sotdi munosabati.

Xulosa: Mening bu maqoladan xulosam shuki bozor iqtisodiyoti bu butun bir bugungi kunimni bir sistemada boshqarib boraayotgan moliyaviysiyosatlaridan biri desak adashmaymiz . Bozor iqtisodiyoti nima uchun kerak ? degan savolga nisbatan javob qilib ayto lamizki . Shiddat bilan rivojlanish borayotgan dunyoda insonlar ehtiyoji ortib boryapti, shunga yarasha iste'molchilarning tavarga bo'lgan talablari ham ortib bormoqda bu esa bozorda raqobat bardosh , sifatli , qulay, va har tomonlama mukammal tavarlarni ishlab chiqarishga turtki bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti – o'sha bozorda tavarlarning narxlarini , sifatini bir meyorda ushlab turadi. Chunki , talab yuqori bo'lmagan mahsulotni bozorga chiqarishdan fayda yo'q

Bozorga mavsumbob , xaridorlar talabini qondurgulik mahsulot olib chiqish kerak. Ortib qolgan mahsulotlarni davlatlar a'zo eksport- inport qilishlari uchun bozor iqtisodiyoti ata yo'l ochib berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Iqdisot nazariyasi. Toshkent-2015 .
2. Wikipediya.com
3. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." Eurasian Journal of Academic Research 2.11 (2022): 100-104.
4. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." Texas Journal of Multidisciplinary Studies 6 (2022): 8-10.